



Sadoqat RO'ZIYEVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

MOHIR-U MEHR-U MAHORAT

(8-sinf, III chorak)

Darsning mavzusi: Sodda gap va gap bo'laklari yuzasidan tahlil.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarda sodda gap va gap bo'laklari yuzasidan tahlil haqida tushuncha hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ona Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: sodda gap va gap bo'laklarini to'g'ri tahlil qila olishga o'rgatish; o'quvchilarning so'zlarni tanlash, ularni muayyan tartibda joylashtirish va nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi va sinf tozaligi tekshiriladi. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa usulida olib borilishi aytiladi va sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga vazifa sifatida berilgan 99-mashq o'qituvchi tomonidan ko'rib chiqiladi. O'tilgan mavzu "**Mantiqiy tafakkur**" o'yini yordamida mustahkamlanadi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan berilgan izohtalab so'zlar mazmuni lug'atlar yordamida sharhlanadi. O'quvchilar tomonidan berilgan javoblar quyidagi slayd yordamida tekshiriladi va baholanadi:

T/r	So'zlar	Mazmuni
1	Bakovul	Podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlovchilar ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz
2	Shig'ovul	Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan shaxs
3	Salom og'asi	Amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turuvchi shaxs
4	Dodxo	1) Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi amaldor; 2) Qo'qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu bayoni darslikdagi 119-mashqni bajarish bilan boshlanadi. Mashq sodda gap tahliliga asosan ko'rib chiqiladi. Buning uchun dastlab sodda gap tahlili bo'yicha tushuncha beriladi.

Tahlil namunasi:

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

Gapda so'zlarning bog'lanishi:

– *inson baxtli bo'ladi* – tobe bog'lanish, moslashuv, kesim va eganing shaxs-sonda mosligi (III shaxs, birlik);
– *ilm bilan va mehnat bilan* – teng bog'lanish, va teng bog'lovchisi yordamida bog'langan;
– *ilm bilan baxtli bo'ladi* – tobe bog'lanish, boshqaruv, bilan ko'makchisi orqali bog'langan.

Gap bo'laklarini aniqlash:

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

– uyushiq bo'lak: *ilm bilan, mehnat bilan*;

– ajratilgan bo'lak yo'q;

– kiritma: *shubhasiz*;

– undalma yo'q;

– gap bo'laklarining joylashuvi me'yoriy.

Gapning qurilishi:

– ifoda maqsadiga ko'ra – darak gap;

– his-hayajonning ifodalanishiga ko'ra – his-hayajonsiz gap;

– tuzilishiga ko'ra – sodda gap, yoyiq sodda gap, to'liq gap, egali gap.

Yuqoridagi tahlil asosida mashq va topshiriqlarni guruhlariga bo'lib beramiz.

Har bir mashq va topshiriqda tahlilning bir elementi mashqlar shartiga ko'ra amalga oshiriladi.

119-mashq. 1-guruh: "Oqilona javob" deb nomlangan matndan egali va egasiz gaplarni toping:

T/r	Matndagi gaplar	Egali gaplar	Egasiz gaplar
1	Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida bosh vazirlik qilgan kezlarida podsho doim uning so'zlariga quloq solib, shoir bilan maslahatda ish tutar ekan.	Egali gap, yoyiq gap	–

2.	Kunlardan bir kun erta tongda Husayn Boyqaro saroyga kirib ketayotib Navoiyga qarabdi-yu, ko'rsatkich barmog'i bilan boshini ko'rsatibdi.	Egali gap, qo'shma gap	–
3.	– Abdulatif, bunchalar parishonxotir bo'lmasangiz, axir siyohdonni ag'darib yubordingiz.	Egasiz gap, shaxsi ma'lum gap, qo'shma gap	–

2-guruhga ushbu mashq matnida berilgan gaplarni gap bo'laklari jihatidan tahlil qiladi:

– Kechirasiz, ustoz, – unga yuzlanibdi shogirdi, – haligi muammoning sababini o'ylab xayolim qochibdi.

Shunda Navoiy shogirdlariga bo'lgan voqeaning sir-asrorini aytib berishga majbur bo'libdi:

– Husayn Boyqaro mendan: “Boshga baloni nima keltiradi?” – deb so'radilar. Men esa: “Til”, – deb javob berdim.

Shogirdlar Navoiyning ziyrak va donishmandligiga yana bir marta goyil qolishibdi.

3-guruh 120-mashqni bajaradi. Mashq shartiga ko'ra quyida berilganlar ichidan yuqoridagi matnning umumiy xulosasi topiladi.

1. Tilingni avayla, omondir boshing. (Yusuf Xos Hojib) 2. Aytilgan so'z – otilgan o'q. (Maqol) 3. Noorin so'z boshga balo keltirar. 4. So'zingni o'ylab so'zla, qayg'u-alam kelmaydi. (Yusuf Xos Hojib) 5. Podsho oldida uch toifadin guzir yoqdir: birinchisi – olimi boamal, ikkinchisi – vaziri sohibra'y, uchinchisi – munshiyi rost-navis. (Gulxaniy)

Yechim: Berilgan mashqdagi 1-, 3-, 4-gaplar yuqoridagi matn g'oyasiga to'g'ri keladi.

Guruhlar javoblariga ko'ra o'qituvchi tomonidan rag'batlantirib boriladi.

1-guruh 101-mashq matnida berilgan gap kesimlarini topib, ularni ot kesim va fe'l kesimga ajratadi:

T/r	Ot kesimli gap	Fe'l kesimli gap
1.	Fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta'sir o'tkazish yo'llari sodda va tushunarli <u>bo'lmog'i lozim</u> .	Farobiy shunday <u>yozadi</u> .
2.	Hukmdorlar dorini bemorning sevimli va ko'p tanovul qiladigan taomiga qo'shib ichiradigan mahoratli tabibga <u>o'xshamog'lari lozim</u> .	Bu mamlakatni boshqaruvchi hukmdor ham o'z mavqeyini butkul <u>yo'qotadi</u> .
3.	Zero, mehr-u muhabbat va rag'batlantirishlar fuqarolar bilan muomalaning eng asosiy <u>usulidir</u> .	Mamlakat esa halokatga <u>yuz tutadi</u> .

2-guruh 102-mashq matnida berilgan gaplarning egalarini topadi:

1. Xushomadni yo'qotishga uringan **hukmdor** o'ziga nisbatan nafrat uyg'otib qo'yishi mumkin. 2. Buning sababi shunday izohlanadi: **tabiblar** deyilarki, sil kasalligini boshlang'ich davrda **aniqlash** qiyin, ammo **davolash** oson. 3. Agar **xastalik** o'tkazib yuborilgan bo'lsa, aksincha, uni **aniqlash** oson-u **davolash** mushkul.

3-guruh 121-mashq matnida berilgan gaplarning kerakli o'rinlarida tirelarni to'g'ri qo'yishi kerak bo'ladi:

1. Olimlar, fozillar, adiblar – davlatning tanasidagi kuch. Ularga iltifot va ikromda bo'l... Shunday yo'l tutginki, hukumatingda orif arboblal, fazilatli insonlar va olimlar ko'paysin. (U.G'oziy) 2. Faqat o'z shaxsiy manfaati haqida qayg'urib burchni unutmoqlik – o'taketgan pastkashlik. 3. Inson zotiga mansub odamlar bir-biriga o'xshamaydilar. Ularning o'xshash tomoni – bitta. U ham bo'lsa, barchaning pirovard maqsadi – mukammallik.

Guruhlarning javobi umumlashtirilib, o'qituvchi tomonidan qo'shimcha ma'lumotlar beriladi:

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mavzu “**Siz buni, albatta, uddalay olasiz!**” o'yi ni yordamida musobaqa usulida mustahkamlanadi. Buning uchun guruhlardan berilgan qoliplarga so'z shakllardan mosini qo'yib gaplarni shakllantirish so'raladi. Quyida biz Bernard Shouning hikmatli so'zlaridan foydalandik:

1. To'ldiruvchi + aniqlovchi + to'ldiruvchi + ega + to'ldiruvchi + hol + kesim. (7 ta so'z)

2. To'ldiruvchi + ega, ega + kesim. Ega + to'ldiruvchi + kesim, ega + to'ldiruvchi + kesim. (10 ta so'z)

3. Bog'lovchi + to'ldiruvchi + kesim, ega + to'ldiruvchi + kesim. (5 ta so'z)

4. Ega + to'ldiruvchi + aniqlovchi + aniqlovchi + to'ldiruvchi + to'ldiruvchi + hol + kesim. (8 ta so'z)

5. Aniqlovchi + to'ldiruvchi + to'ldiruvchi + aniqlovchi + hol + aniqlovchi + ega + to'ldiruvchi + kesim. (9 ta so'z)

6. Aniqlovchi + ega + kesim, aniqlovchi + ega. (5 ta so'z)

So'z shakllari

T/r	1	2	3	4	5
1	ota-onalar	optimist	farzandlariga	jamiyatga	hissa qo'shadi
2	o'ylab topgan bo'lsa	bolalarni	optimistlar ham	samolyotni	pessimist
3	hech narsani	agar	parashutni	unvonlar	to'g'ri
4	o'ylab topilgan	katta	istamasang	eng	o'rgatmaydi
5	tarbiyalash uchun	odam	pessimistlar ham	aslidagiday	odamlar haqida
6	xizmat qilgan	mamlakat	mamlakat uchun	o'rganishni	tarbiyalashidir
7	xabardor qilish uchun	hayot	insoniyat uchun	ushaladi	pessimistlarning
8	ko'rinishi kerak	xalqni	ixtiro qilgan	bolalarini	orzulari
9	qilishi mumkin bo'lgan	va	optimistlarning	qo'rquvlari	xizmati

Jami: 45 ta so'z shakli.

Topshiriqning javobi:

1. Bolalarni to'g'ri tarbiyalash uchun ota-onalar farzandlariga aslidagiday ko'rinishi kerak. (To'ldiruvchi + aniqlovchi + to'ldiruvchi + ega + to'ldiruvchi + hol + kesim)

2. Jamiyatga optimistlar ham, pessimistlar ham hissa qo'shadi. Optimist samolyotni o'ylab topgan bo'lsa, pessimist parashutni ixtiro qilgan. (To'ldiruvchi + ega, ega + kesim. Ega + to'ldiruvchi + kesim, ega + to'ldiruvchi + kesim)

3. Agar o'rganishni istamasang, hayot hech narsani o'rgatmaydi. (Bog'lovchi + to'ldiruvchi + kesim, ega + to'ldiruvchi + kesim)

4. Unvonlar mamlakat uchun katta xizmat qilgan odamlar haqida xalqni xabardor qilish uchun o'ylab topilgan. (Ega + to'ldiruvchi + aniqlovchi + aniqlovchi + to'ldiruvchi + to'ldiruvchi + hol + kesim)

5. Odam mamlakat va insoniyat uchun qilishi mumkin bo'lgan eng katta xizmati – bolalarini tarbiyalashidir. (Aniqlovchi + to'ldiruvchi + to'ldiruvchi + aniqlovchi + hol + aniqlovchi + ega + to'ldiruvchi + kesim)

6. Optimistlarning orzulari ushaladi, pessimistlarning qo'rquvlari. (Aniqlovchi + ega + kesim, aniqlovchi + ega)

V. O'quvchilarni baholash va rag'batlantirish.

Dars so'ngida yig'ilgan ballar hisoblanib, g'olib guruh e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi. Darsdagi ishtirokiga ko'ra barcha o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

103-mashq. Maqollardagi bo'sh o'rinlarni quyidagi so'zlardan tanlab to'ldiring: *bog', haqiqat, adolat, tog', xalq, olomon, daraxt, buta, qozi, boy, odil.*

1. ... kishi oyday, oqib turgan soyday. 2. ...ning yuzi yorug', qo'li uzun. 3. Haq ishni ... qo'llar. 4. Yolg'iz ... o'rmon bo'lmas. 5. Ko'p biriksa, ... qular.

Методик тавсия



Mo'tabar TAJIBAYEVA,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

OG'IR NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI SAVODGA TAYYORLASH

Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar murakkab nutq buzilishi bilan tavsiflanadi, bunda nutq tizimining tovush va semantik tomoni bilan bog'liq bo'lgan barcha komponentlar shakllanishi eshitish va aqlning normal bo'lmashligi bilan buziladi. Bunda osongina aniqlanadigan va, ko'pincha, tashxisni aniqlovchi ko'rsatkich sifatida qabul qilinadigan tovush talaffuzidagi kamchiliklarga qo'shimcha ravishda nutq funksiyalarining butun majmuasi buziladi: fonetik nutq rivojlanmaganligi, murakkab bo'g'inli so'zlar talaffuzining buzilishi, so'z boyligining yetarli darajada rivojlanmasligi, nutqda agrammatizmlar. Bularning barchasi, birgalikda, og'ir nutq nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qish va yozishni o'rgatishda qiyinchiliklarga olib keladi.

O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra o'g'ir nutq nuqsonli maktabgacha yoshdagi bolalarning 74 foizi o'qish va yozishni o'rganishda, tovushlarni tavsiflash-

da qiynaladi, fonematik eshitishi zaif rivojlangan bo'lib, harflarni yomon eslab qoladi, so'zlarni ovozli tahlil qilish, so'zlarni bo'g'inlarga, gaplarni so'zlarga ajratishda qiynaladi.

Bolalarda savod egallashga bo'lgan qiziqish 5–7 yoshdan shakllana boshlaydi. Og'ir nutq nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga tayyorlashda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- fonematik idrokni rivojlantirish;
- tovushlarni talaffuz qilish va ularni eshitib farqlash, tovushlarni analiz-sintez qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

- aqliy operatsiyalarni shakllantirish (hikoyani jumalarga, gaplarni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga bo'lish hamda tovushlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni so'zlarga va boshqalarga birlashtirish);